

miqdori, undagi o'simliklarga fiziologik ta'sir ko'rsatadigan nurlar orqali hisoblanadi. Quyosh nuri spektorida fotosintetik aktiv radiatsiya (FAR) – fotosintezda ishlatiladigan asosiy nurlardir. O'simliklar tomonidan yil bo'yi qabul qilinadigan yorug'lik faqat yorug'lik tezligiga bog'liq bo'lmasdan, u kun uzunligiga ham bog'liq. Kun uzunligi ekvatoridan qutblarga qarab oshib boradi. O'simliklar qoplam uchun yil bo'yi qabul qilinadigan radiatsiya summasi emas, o'simliklar o'sish mavsumi davridagi yorug'lik miqdori ahamiyatiga ega.

Yuqoridagi ma'lumotlarda ko'rinib turibdiki, xalq xo'jaligining barcha sohalarida tabiatga ta'sir etish va ekologik holatni bo'zishiga olib keladigan oqibatlar mavjud. Ayniqsa, qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi oqibatlar to'g'ridan-to'g'ri insoniyatga ta'sir etmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, dunyoda har 10 yilda mineral o'g'it ishlab chiqarish 2 barobarga oshmoqda [4]. Tuproqqa kiritiladigan mineral azotni 40 % o'zlashtirilishi isbotlangan. Qolgan qismi yuvilishi va gaz holatga o'tishi hisobidan suv havzalari, atmosfera havosi zaharlanmoqda. Ilmiy tekshirishlar shuni ko'rsatmoqdaki, tuproq tarkibidagi gumus miqdori doimo kamayib bormoqda. Bo'z tuproqlar tarkibida 20 yil oldin 2-4 % ni tashkil etgan bo'lsa, hozirgi kunda 0,7-1,2 % ni tashkil etmoqda. Gumus miqdorining kamayishi tuproq strukturasini pasayishi, tuproq agregatlarini ezilishi, chang zarrachalarini ko'payishiga olib keldi. Tuproq strukturasini o'zgarishi uning fizikaviy va kimyoviy o'zgarishiga olib kelib, issiqlik, namlik va havo xossalari salbiy tomonga o'zgarishiga sabab bo'lmoqda.

Mineral o'g'itlarni notug'ri qo'llanilishi natijasida tuproq eritmasidan Ca^{++} , Mg^{++} , Mn^{++} , Cu^{++} elementlarining kationlarini yuvilishi kuzatilmoqda. Bundan tashqari, mineral o'g'it ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan xom ashyo tarkibida og'ir metallar: kadmiy, stronsiy, qurg'oshin, qalay, simob, uran, ruh saqlaydi. Ma'lumotlarga ko'ra, 70 kg li bir odam bir hafta davomida iste'mol mahsulotlari bilan birga qurg'oshin 3,5 mg, kadmiy 0,6 mg, simob 0,35 mg tanaga tushadi [4]. Superfosfat va kaliyli o'g'it ishlab chiqarishda doimo 1-5 % ftor tushadi. Ftor va og'ir metallar qon tarkibidagi eritrotsidni parchalaydi va insonlarni turli kasalliklarga duchor bo'lishga olib kelmoqda.

Hozirgi vaqtda nitratli o'g'itlarni qo'llanilmasligi mahsulot hosildorligini keskin kamayishga olib keladi. Me'yordan ortiq qo'llanilganda, 65 % nitratlar inson organizmida nitrit shaklida to'planadi. Nitrit qon tarkibidagi gemoglobinni metagemoglobingacha oksidlaydi. Metagemoglobin kistorod bilan ta'minlashga qatnashmaydi. Organizmda 2 % dan oshganda turli kasalliklar kelib chiqadi. 40 % etganda o'lim holatiga olib keladi. Nitratlarni boshqa nitroza birikmalari konserogen hisoblanib, turli o'sma kasalliklarini keltirib chiqarmoqda.

Xulosa qilib aytganda, qishloq xo'jaligida ekinlardan yuqori va sifatli hosil etishtirishda ekologik toza o'g'itlarni qo'llash masalasi eng dolzarb hisoblanadi. Tuproq tarkibidagi oziq moddalar konsentratsiyasiga va uning miqdoriy balansini rostlash orqali o'simlikdagi me'yoriy oziqlanishni ta'minlash mumkin. Tadqiqot natijalariga ko'ra Zn/Cu ; Mn/Zn ; Mn/Cu nisbatlari o'simlik oziqlanishiga muhimdir hisoblanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Muftaydinov Q.X., Qodirov H.M., Yulchiyev E.Yu. Ekologiya. Darslik. Toshkent. 2020.
2. <https://glavagronom.ru/news/dve-treti-selhozzemel-podverzheny-risku-zagryazneniya-pesticidami-issledovanie>
3. <https://testslab.ru/stati/metodiki-opredeleniya-pesticidov-v-pochve/>
4. <https://soz.bio/mineralnye-udobreniya-polza-i-vred/#.>
5. Спицына С.Ф., Томаровский А.А., Оствальд Г.В., Поскребкава О.Г., Спитсына С.Ф., Томаровский А.А., Оствальд Г.В., Поскребкава О.Г. Сбалансированность питания растений микроэлементами на территории колючей степи и лесостепи алтайского края. Вестник Алтайского государственного аграрного университета № 1 (123), 2015. 38-42. ст.

UO'T: 635.65.631.51

TAJIRIBA DALASINING SUV BALANSI VA LOVIYA NAVLARINING SUV ISTE'MOLI

O'tayarova Gulshoda Uzakovna, assistent,

Xalilov Nasriddin, q.x.f.d., professor,

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

Tursunov Shermuxammad Nurmamatovich,

Don va dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti, Samarqand ilmiy- tajriba stansiyasi direktori,

Ravshanova Nilufar Adilovna,

Sholichilik ilmiy-tadqiqot instituti laboratoriya mudiri

Annotatsiya. Maqolada tajriba dalasining suv balansini va unga bog'liq holda loviya navlarining suvga bo'lgan talabi yoritilgan. Loviyaning Ravot va Mahsuldor navlari ekilgan maydonlarning umumiy namlikni sarflashiga va suv balansini elementlari ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir etganligi aniqlandi. Bundan tashqari, umumiy namlik sarfi loviya naviga, uning hosildorligiga va ob-havo, ya'ni meteorologik sharoitga ham bog'liq. Loviyaning Ravot va Mahsuldor navlarida sug'orish oldi tuproq namligi tartibi ortishiga qarab umumiy suv sarfi ham ortib borganligi hisobga olindi. Sug'orish oldi tuproq namligi ChDNS ga nisbatan 70-60-60 % (nazorat) sug'orish tartibida suv oz sarflanganligi qayd etildi. Tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, Ravot navining umumiy suv iste'moli (suvga bo'lgan talab) 3454-4067 m³/ga o'rtasida, Mahsuldor navida esa 3303-3947 m³/ga o'rtasida tajriba o'tkazilgan yillar bo'yicha o'zgarib turganligi aniqlandi.

Kalit so'zlar: Suv balansini, suv rejimi, tuproq qatlami, loviya, suv iste'moli, suv bug'latish, suv sarfi, ChDNS, sizot suvlari.

Аннотация. В статье описан водный баланс опытного поля и в зависимости от него потребность сортов фасоли в воде. Установлено, что сорта фасоли Равот и Махсудар оказали прямое влияние на общее влагопотребление и элементы водного баланса посевных площадей. Кроме того, общий расход влаги зависит от сорта фасоли, ее урожайности и погоды, то есть метеорологических условий. Учитывалось, что общий расход воды также увеличивался в зависимости от повышения влажности почвы перед поливом у сортов фасоли Равот и Махсудар. Отмечено, что влажность почвы перед поливом составляла 70-60-60% (контроль) по сравнению с ЧДНС, а расход воды был меньше. Результаты эксперимента показали, что общее водопотребление (потребность в воде) у сорта фасоли Равот находится в пределах 3454-4067 м³/га, а у сорта Махсудар - в пределах 3303-3947 м³/га.

Ключевые слова: водный баланс, водный режим, почвенный слой, фасоль, водопотребление, испарение воды, водопотребление, ЧДНС, фильтрационные воды.

Annotation. The article describes the water balance of the experimental field and, depending on it, the need of bean varieties for water. It was established that the bean varieties Ravot and Mahsuldar had a direct impact on the overall moisture consumption and elements of the water balance of the sown areas. In addition, the total moisture consumption depends on the bean variety, its yield and the weather, that is, meteorological conditions. It was taken into account that the total water consumption also increased depending on the increase in soil moisture before watering in the Ravot and Mahsuldar bean varieties. It was noted that the soil moisture before irrigation was 70-60-60% (control) compared to ChDNS, and water consumption was less. The results of the experiment showed that the total water consumption (water requirement) for the Ravot bean variety is in the range of 3454-4067 m³/ha, and for the Mahsuldar variety - in the range of 3303-3947 m³/ha.

Key words: water balance, water regime, soil layer, beans, water consumption, water evaporation, water consumption, ChDNS, filtration water.

Kirish. Mamlakatimizda yiliga 330,5 ming gektar maydonga dukkakli don ekinlari ekilib, shundan 35,8 ming gektariga loviya, asosiy ekin sifatida 5,1 ming, takroriy ekin sifatida 24,5 ming gektar maydonga ekilib kelinmoqda [2,3,4].

Qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orish miqdori va rejimini to'g'ri belgilash uchun suvning kirim va chiqim elementlarini, ya'ni ekin maydonining suv balansini to'g'ri belgilash sug'oriladigan dehqonchilik sharoitida nihoyatda muhim hisoblanadi [13,14,15].

Tuproq namligi va tuproq yuzasidagi bug'lanish o'simlikning jami suvga bo'lgan talabini tashkil etadi. Mahsulotning 1 sentneriga sarflangan suv miqdori o'simlikning suvga bo'lgan talabining koeffitsienti deyiladi. Cho'l mintaqasi tuproqlarida bo'z tuproqlarga nisbatan suvga bo'lgan talab koeffitsienti yuqori. Bunga sabab cho'l mintaqasida harorat yuqori, havo juda quruq va tuproq yuzasidan bug'lanish ko'pligidir. Loviya va boshqa ekinlarning maqbul sug'orish tartibini ishlab chiqish uchun ekin yetishtiriladigan maydonning suv balansini (muvozanati) ni o'rganish zarur [15].

Loviya yetishtiriladigan maydonning ekin o'suv davridagi suv balansiga quyidagi elementlarni kiritadi:

suvning kirim elementlari – yog'ingarchilik, sug'orish me'yori, sizot suvlari, loviyaning o'suv davridan tashqari berilgan suv;

suvning chiqim elementlari–tuproq yuzasidan bug'lanish, ekin orqali kechadigan suv sarfi, suvning hisobiy qatlamdan pastroqqa sizib ketishi [16].

Material va uslublar. Tajriba dalasining suv balansini loviya navlarining sug'orish tartibi bo'yicha sug'oriladigan o'tloqi-bo'z tuproqlar sharoitida aniqlash va ishlab chiqarishga tavsiyalar berishdan iborat.

O'tkazilgan dala tajribamizda 0-100 sm tuproq qatlamgacha chuqurlikda bo'lgan tuproq qirgimidan olingan namunalar bo'yicha N.A.Kacninskiy uslubida aniqlandi. Bu yerda sizot suvlari 3 metr chuqurlikda joylashgan bo'lib, u juda kam miqdorda sarflangan sug'orish me'yori hisobga olingan tuproq qatlamidan suvning sizib ketishi amalda kuzatilmaydi.

Samarqand viloyatining sug'oriladigan o'tloqi-bo'z tuproqlarining dala nam sig'imi (DNS) loviya urug'larini ekishdan oldin o'tkazilgan tahlillar natijalariga ko'ra, 0-30 sm qatlamda

24,4%, 0-50 sm qatlamda 24,3%, 0-70 sm qatlamda 24,2%, 0-100 sm qatlamda esa 24,0% ni tashkil etganligi aniqlandi.

Binobarin, sug'orish me'yori, ekin o'suv davridagi yog'in-sochin, tuproq namligi sarfi va tuproq yuzasidan bug'lanish va o'simlik orqali suv bug'lanishi tajriba maydonining suv balansini elementlarini tashkil etadi. Suv balansini quyidagi formula bo'yicha aniqlandi:

$$E = W_n - W_k + O + M$$

E – ekin yetishtiriladigan maydondagi jami namlik sarfi, m³/ga;

W_n – ekish davrida 0-100 sm qatlamdagi mavjud namlik, m³/ga;

W_k – ekin o'suv davri oxirida 0-100 sm qatlamda mavjud namlik, m³/ga;

O – ekin o'suv davrida jami yog'ingarchilik (IV-VII), m³/ga;

M – sug'orish me'yori, m³/ga.

Loviyaning Ravot va Mahsuldor navlari ekilgan maydonlarning sug'orish oldi tuproq namligi tartibi maydonda umumiy namlikni sarflashga va suv balansini elementlari ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir etganligi aniqlandi. Bundan tashqari, umumiy namlik sarfi loviya naviga, uning hosildorligiga va ob-havo, ya'ni meteorologik sharoitga ham bog'liq. Loviyaning Ravot va Mahsuldor navlarida sug'orish oldi tuproq namligi tartibi ortishiga qarab umumiy suv sarfi ham ortib borganligi hisobga olindi. Sug'orish oldi tuproq namligi ChDNS ga nisbatan 70-60-60 % (nazorat) sug'orish tartibida suv oz sarflanganligi qayd etildi. Bu variantda loviya Ravot navining umumiy suv iste'moli (suvga bo'lgan talab) 3454-4067 m³/ga o'rtasida, Mahsuldor navida esa 3303-3947 m³/ga o'rtasida tajriba o'tkazilgan yillar bo'yicha o'zgarib turganligi aniqlandi.

Sug'orish oldi tuproq namligi ChDNS ga nisbatan 70-80-60% sug'orish tartibida yetishtirilgan loviya navlariga eng ko'p suv sarflanganligi qayd etildi. Bu variantda loviyaning Ravot navida suvga bo'lgan talab 4822-5428 m³/ga o'rtasida, Mahsuldor navida esa 4791-5429 m³/ga miqdorda o'zgarib turganligi qayd etildi. Shunday qilib, loviyaning Ravot navi Mahsuldor naviga qaraganda namlikdan ko'proq foydalangan.

Tuproqning 0-100 sm qatlamidagi namlik zahirasining sarfi ham sug'orish oldi tuproq namligiga, ya'ni sug'orish me'yori

va ekilgan navning biologik xususiyatlariga bog'liq. Sug'orish oldi tuproq namligi ChDNS ga nisbatan 70-70-60 % (nazorat) sug'orish tartibi variantida ekin vegetatsiyasi oxirida tuproqning nami ancha kamayib ketganligi ma'lum bo'ldi. Ravot navida bu miqdor tajriba o'tkazilgan yillar bo'yicha 91-147 m³/ga, Mahsuldor navida 104-244 m³/ga atrofida o'zgarib turdi, ya'ni Ravot naviga qaraganda ancha yuqori. Bunga sabab, loviyaning Mahsuldor navi Ravot naviga qaraganda tuproq namligidan ko'proq foydalanganligidir.

Sug'orish oldi tuproq namligi ChDNSga nisbatan 70-80-60 % sug'orish tartibida ekinning vegetatsiya davrining oxirida namlik boshqa variantlarga nisbatan ozroq kamayganligi qayd etildi. Bu Ravot navida 141-235 m³/ga, o'rtasida yoki umumiy suvga bo'lgan talabning 4,41-7,3 % ini, Mahsuldor navida esa 132-276 m³/ga o'rtasida yoki umumiy suvga bo'lgan talabning 4,13-7,6% ini tashkil etdi.

Odatda, sug'orma dehqonchilik sharoitida dalada asosiy suv sarfi sug'orish me'yori hissasiga to'g'ri keladi. Ammo suvga bo'lgan umumiy talab sug'orish oldi tuproq namligiga bog'liqdir. Kamchil sug'orish tartibida umumiy suvga bo'lgan talab kamayadi, oshirilgan suv rejimida esa, aksincha, suv sarfi ham ko'payadi [5].

Sug'orish oldi tuproq namligi ChDNS ga nisbatan 70-70-60 % sug'orish tartibida Ravot navi yetishtirilgan maydonning suv sarfi tajriba o'tkazilgan yillar bo'yicha 4081-4691 m³/ga atrofida o'zgarib turdi, shundan 73,7-85,0 % sug'orishda beriladigan suv hisobiga, 3,69-7,2 % 0-100 sm tuproq qatlamida to'plangan namlik hisobiga to'g'ri keldi.

Mahsuldor navi 70-70-60 % sug'orish tartibida yetishtirilganda jami namlik sarfi yillar bo'yicha 3857-5429 m³/ga ni, shundan 76,4-84,39 % sug'orish me'yori hissasiga, 3,41-8,6 % esa 0-100 sm qatlamdagi namlikka to'g'ri keldi.

Tadqiqot natijalari va ularning tahlili. Tadqiqotlarda shuningdek, 1 sentner don hosili olish uchun sarflangan sug'orish suvi aniqlanib, loviya Ravot navida bu ko'rsatkich sug'orish tartiblari bo'yicha va tajriba yillari o'rtacha hisobda 129,9-149,5; 149,6-154,3 va 168,2-176,8 m³ ni, Mahsuldor navida esa ko'rsatkichlar tegishli 109,6-114,4; 127,6-134,4 va 152,0-158,4 m³ ni tashkil etib, Mahsuldor navida 1 sentner don hosili yetishtirish uchun, Ravot naviga qaraganda o'rtacha hisobda, tuproq namligi ChDNS ga nisbatan 70-60-60 % (nazorat) sug'orish tartibida 22,6-44,6 m³, tuproq namligi ChDNS ga nisbatan 70-70-60 % sug'orish tartibida 23,1-26,8 m³, tuproq namligi ChDNS ga nisbatan 70-80-60 % sug'orish tartibida 18,8-23,4 m³ suv tejalganligi.

O'tkazilgan tadqiqotlarda 1 m³ sug'orish suvini don hosili bilan qoplash, Mahsuldor navida Ravot naviga qaraganda 0,14-0,20; 0,10-0,11 va 0,06-0,07 kg/ga yuqori bo'lib, ijobiy ko'rsatkichlar Mahsuldor navida qayd etildi.

Xulosa shuki, Samarqand viloyatining sug'oriladigan o'tloqi-bo'z tuproqlari sharoitida loviya navlarini yetishtirishda sug'orisholdi tuproq namligi ChDNSga nisbatan 70-70-60 % sug'orish tartibida o'simliklar uchun qulay namlik tartiboti yaratilib, mazkur sharoitda o'simliklar sug'orish suvlaridan samarali foydalanib, 1 s mahsulotga sarflangan suv sarfi kamayishi ta'minlanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Iminov A.A., Xalikov B.M. Takroriy ekinlarni tuproqdagi oziq moddalar miqdoriga ta'siri. // O'zbekiston tuproqshunoslar va agrokimyogarlarni jamiyati V qurultoyi maqolalar to'plami. - Toshkent, TAITDI. 2005. - B.257-258.
2. Oripov R., Xalilov N. O'simlikshunoslik // Toshkent, 2004
3. Xalilov N., Ravshanova N., Otayarova G.U. va boshqalar Ang'izga ekish uchun yaroqli loviya yangi navlari va ularning agroteknikasi (tavsifanoma) //; Samarqand, 2014
4. LOVIYANING O 'SISHI, O 'SISH JADALLIGI VA O 'RTACHA SUTKALIK O 'SISHIGA SUG 'ORISH TARTIBLARINING TA'SIRI. GU Otayarova, N Xalilov, NA. Ravshanova, SCHOLAR 2 (5), 95-100
5. H.A.Усманов, H.A.Равшанова, Г.У.Отаярова. ЗАВИСИМОСТЬ ДЛИНЫ ВЕГЕТАЦИОННОГО ПЕРИОДА СОРТОВ ФАСОЛИ ОБЫКНОВЕННОЙ ОТ СРОКОВ И СПОСОБОВ ПОСЕВА. Academic research in educational sciences 2 (10), 718-724
6. Xalilov, N., Kosimova, SH., Otayarova, G., O'ktamov, X., & Abduqodirov, B. (2022). SILOS MASSA UCHUN MAKKAJO'XORI DURAGAYLARINI ETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI. AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 1207-1209.
7. Bekmuradova, X. K., & Ismoilov, A. I. Samarkand, Uzbekistan Samarkand Institute of veterinary medicine, Samarkand, Uzbekistan The scientific research institute of vegetable groups and potato studies in Samarkand scientific-experimental station, Samarkand, Uzbekistan. BBK 65.2 S56, 58.
8. Бекмурадова, Х. К., Исмоилов, А. И., & Ахмадалиев, Б. Ж. (2019). ОЦЕНКА ИСХОДНОГО МАТЕРИАЛА ДЛЯ СОЗДАНИЕ НОВЫХ УСТОЙЧИВЫХ К ВИРУСНОЙ МОЗАИКЕ СОРТОВ ТОМАТА. Актуальные проблемы современной науки, (3), 170-173.
9. Омонов, А. Ж. (2021). ОПТИМИЗАЦИЯ СРОКОВ И НОРМ ПОСЕВА ПРОСА. Актуальные проблемы современной науки, (4), 83-87.
10. Omonov A. J. idr. INFLUENCE OF CONDITIONAL INSTALLATION ON BIOMETRIC INDICATORS AND GRAIN HARVEST //Life Sciences and Agriculture. – 2020. – T. 2. – №. 2. – S. 60-64.
11. Uluqova, S. B., Mavlonov, B. T., & Ismoilov, V. I. (2023). KUZGI JAVDAR DON VA SOMON HOSILDORLIGIGA EKISH MUDDATI VA ME'YORINING TA'SIRINI BAHOLISH. AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 2(4), 28-31.
12. Abdisaxatova, S. S., Ismoilov, V. I., & Mavlonov, B. T. (2024). Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti. GOLDEN BRAIN, 2(3), 76-80.
13. Усманов H.A., Равшанова H.A., Отаярова Г.У. Зависимость длины вегетационного периода сортов фасоли обыкновенной от сроков и способов посева. Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 10 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89 DOI: 10.24412/2181-1385-2021-10-718-724 Google Scholar Scientific Library of Uzbekistan Academic Research, Uzbekistan 718 www.ares.uz

14. Ravshanova N.A. Usmonov I.M.Chulliev A.K., Isroilov B. Photosynthetic activity of bean ordinary depending on ways of seeding/ Science Review// DOI: https://doi.org/10.31435/rsglobal_sr/31102019/6747

15. Otayarova G.U., Ravshanova N.A. Oddiy loviya navlarning sug'orish tartiblarini vegetatsiya davrning davomiyligiga ta'siri International Scientific-Practical Conference Actual Issues Of Agricultural Development: Problems And Solutions June 6-7, 2023 <https://doi.org/10.5281/zenodo.8012567>

16. Равшанова Н.А., Отаёрова Г., Полвонов С.А. Технологические аспекты возделывания сортов маша (Phaseolus aureus) в совместных и совмещённых посевах с хлопчатником International Scientific-Practical Conference Actual Issues Of Agricultural Development: Problems And Solutions June 6-7, 2023 <https://doi.org/10.5281/zenodo.8012218>

17. Otayarova G.YU., Xalilov N. i Ravshanova N.A. (2024). LOVIYANING O'SISHI, O'SISH DJADALLIGI VA O'RTACHA SUTKALIK O'SISHIGA SUG'ORISH TARTIBLARINING TA'SIRI. УЧЕНЫЙ, 2 (5), 95-100. <https://scholar-journal.org/index.php/s/article/view/102>.

18. Tursunov Sh. N. Otayarova G. U., Quldoshev B. X., Imomnazarova F., N. A. Ravshanova. «Veterinariya va chorvachilik sohalarini rivojlantirishda yosh olimlarning o'rni» mavzusidagi magistrlar va iqtidorli talabalarning ilmiy – amaliy konferensiyasi. <https://sciencebox.uz/index.php/tibbiyot/issue/view/106>, 1010-1013

UO*T: 631.11. 631.8. 633.6

YANGI LOVIYA NAVLARINI SUG'ORILADIGAN YERLARDA YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI

Otayarova Gulshoda Uzakovna,

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
"O'simlikshunoslik va yem-xashak yetishtirish" kafedrasida assistenti,

Ravshanova Nilufar Adilovna,

Sholichilik ilmiy-tadqiqot instituti laboratoriya mudiri,

Tursunov Shermuxammad Nurmatovich,

Don va dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti, Samarqand ilmiy tajriba stansiyasi direktori,

Isroilova Mahliyo Salom qizi,

Imomnazarova Farzona Farxod qizi,

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti talabalari.

Annotatsiya. Maqolada loviyaning agrotexnikasi, oziq-ovqatlik ahamiyati, yangi Ravot va Mahsuldor navlarining tasnifi, ularning sug'oriladigan yerlarda takroriy ekin sifatida yetishtirish texnologiyasining ayrim jixatlarini o'rganish natijalari bayon qilingan.

Kalit so'zlar: ang'iz – kuzgi g'alla ekinlardan bo'shagan maydon, takroriy ekin- asosiy ekindan keyin ekiladigan ekin, o'timishdosh ekin- ekiladigan ekindan oldin ekilgan ekin, inokulyasiya-donlarni nitragin preparati bilan ishlanishi.

Аннотация. В статье описано агротехническое и пищевое значение фасоли, классификация новых сортов Равот и Махсудор, результаты изучения некоторых элементов технологии ее выращивания как повторной культуры на орошаемых землях.

Ключевые слова: ангиз – площадь, освобожденная от осенних посевов зерновых, повторный посев – посев после основного урожая, предшественник – посев перед следующим посевом, инокуляция – обработка зерна нитрагином.

Abstract. The article describes the agrotechnical and nutritional significance of beans, the classification of new varieties Ravot and Mahsuldor, the results of studying some elements of the technology of its cultivation as a repeat crop on irrigated lands.

Key words: angiz - area freed from autumn grain crops, re-seeding - sowing after the main harvest, predecessor - sowing before the next sowing, inoculation - treatment of grain with nitragine.

Kirish. Loviya - keng tarqalgan oziq-ovqat ekini. Uning urug'lari, yashil dukkaklari, konservalangan dukkaklaridan oziq-ovqat mahsulotlari, turli taomlar tayyorlashda foydalaniladi. Urug'larini ma'zasi yaxshi, tez pishadi hamda hazmlanadi. Loviya dukkakli don ekinlari orasida ekish me'yori bo'yicha soyadan keyin ikkinchi o'rinni egallaydi [1].

Loviya o'simligi oziq-ovqatda, texnikada, konserva tayyorlashda, qandolat mahsulotlari ishlab chiqarishda, yem-xashak sifatida ishlatiladi. Loviyaning bunday ishlatilishi donning sifatiga bog'liq. Loviya parhez taomlar tayyorlashda, ayniqsa qandli diabet kasalligiga chalingan kishilar uchun foydali taom

hisoblanadi. Ko'p ma'lumotlarga ko'ra, donining tarkibida 22,3 % oqsil, 54,5 % uglevodlar, 1,7 % yog', 3,9 % kletchatka, - 3,6 % kul moddalar mavjud. Energiya qiymati ham yuqori–100 gramm urug'da 309 kkal (1293 kDj) saqlanadi [3,4].

Loviya donining tarkibida almashib bo'lmaydigan va odam organizimiga juda kerakli aminokislotalar-lizin, triptofan, metionin, treonin, valin, fenilalanin, leysin, izoleysin bor. SHuning uchun loviyani almashtirib bo'lmaydigan konsentrat deyishadi. Loviya donining tarkibidagi oqsil juda yaxshi hazm bo'ladi. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha go'sht va baliq oqsiliga yaqin (86-90 %). Uning doni tarkibida temir moddasi 2,8, fosfor-2,6, kaliy-3,3,